

**Abdujabborova Shohista Adiljonovna**

*Andijon Davlat Chet tillar Instituti*

*Ingliz tili amaliyoti kafedrasida katta o'qituvchisi*

Email: [abdujabborovashohista645@gmail.com](mailto:abdujabborovashohista645@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek topishmoqlarining sintaktik strukturasi xususan, tekstemali topishmoqlarni tahlil qilish, ularni chog'ishtirilayotgan tillarda umumiy va xususiy tomonlari misollar yordamida yoritilib beriladi. Matniy topishmoqning o'ziga xos belgilari haqida axborot beriladi, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunliklar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *topishmoq, tekstema, sintaktik, superfaza, kompozitsion va ritmik jihatlar, morfema, grammema, sintaksema.*

### RIDDLES WITH TEXTEME IN ENGLISH AND UZBEK

**Abdujabborova Shohista Adiljanovna**

*Andijan State Institute of Foreign Languages*

*Senior teacher of the Department of English Language Practice*

Email: [abdujabborovashohista645@gmail.com](mailto:abdujabborovashohista645@gmail.com)

**Abstract:** *In this article, the syntactic structure of English and Uzbek riddles, particularly the analysis of textual riddles, and their general and specific aspects in comparative languages, are highlighted with the help of examples. Information is provided about the characteristic features of the texteme riddles, independent sentences or complex syntactic units are considered.*

**Keywords:** *riddle, textme, syntactic, superphrase, compositional and rhythmic aspects, morpheme, grammeme, syntaxeme.*

A. Ziyaev til birliklariga o'zgacha yondashgan holda quyidagi munosabatni bildiradi: Turli tizimdagi zamonaviy ingliz, o'zbek va rus tillarida deintensifikatsiya kontseptual makrosemantikasini ifodalovchi, ya'ni voqealantiruvchi til sathlarining birliklari qiyosiy-tipologik taxlili asosida shu narsa aniqlandiki, mazkur kontseptual semantika til birliklarining quyidagi invariant turlari orqali tizimli asnodan ifodalanar ekan: 1) fonema (to'g'rirog'i, morfofonema); 2) morfema; 3) leksema; 4) sintaksema: a) frazema; b) sentencema); 5) frazeoema; 6) tekstema (diskursema) [8, 95].

Prof. G'.M.Hoshimov gapni sentencema deya ta'riflaydi: "Gap bir yoki undan ortiq ega – kesimli tarkibga ega bo'lgan sintaktik birlik bo'lib, u ma'lum voqelikni o'zida aks ettiradi" [6. 80]. Lisoniy birliklar "-ema" qo'shimchasi bilan yasalgan terminlar bilan

ataladi va shuning uchun emik birliklar ham deyiladi. Fonema, leksema, morfema, grammema, sintaksema, tekstema shunday birliklardir. Bu birliklarning har biri umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab xossasiga ega va invariant hisoblanadi. Chunki ularning har biri nutqda cheksiz xususiyliklar, variantlar orqali voqelanadi, natijada nutqiy birliklar hosil bo'ladi. Demak, lisoniy birliklar nutqda namoyon bo'ladi, reallashadi, moddiylik kasb etadi, material hodisaga aylanadi. Shu sababli lison va nutq, lisoniy birliklar va nutqiy birliklar biri ikkinchisini taqozo etadigan hodisalardir [1,53].

Ma'lumki, «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ushbu so'zga quyidagicha ta'rif beriladi: [a. — yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] [9, 4] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Matn og'zaki yoki yozma shakldagi yaxlit nutqiy asardir [9, 4]. Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo'lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak [9, 4]. Anglashiladiki, tekstema bu matn darajasining birligi sifatida ko'riladi.

E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan mualliflik asarida *matn* borasida shunday deydi: Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma [4, 6]. Matn tilshunosligida tekstema mazmuni murakkab sintaktik yaxlitlik, iboralar birligi, frazema ansambli va boshqa ba'zi matn birliklari kabi jumlar guruhlar bilan bir qatorda turadi, ularning orasidagi farqlar, aslida, faqat terminologik xususiyatga ega [5, 58]. Yana bir ta'rifga ko'ra, tekstema - "yozuvchining asarlaridagi ma'nolar yig'indisida uchraydigan so'z yoki so'zlar birikmasi: muallifning o'ziga xos keng tarqalgan to'g'ridan-to'g'ri yoki ko'chma ma'nolarda hamda matn ma'nosida qo'llaniladigan so'z yoki so'zlar birikmalar yig'indisi [2, 39].

Topishmoqlarni orasida ham uni matn holatdagi qiyofasi, **tekstemali topishmoqlar (TT)** qiyoslanayotgan tillar orasida mavjud va keng tarqalgan. Bunda topishmoq matni topishmoqning o'ziga xos belgilari haqida axborot beradi, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topadi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilar tushuniladi.

Ingliz tilida misollar:

1) *Some little white packages came from the farm,*

*Don't handle them roughly, or they'll come to harm.*

*The wrappers just fit, and once they are broken.*

*Not a mender exists from your house to Hoboken [7, 15]. Answer: Eggs. –*

*Fermadan bir nechta oq rangli posilkalar keldi,*

*Ularga also qo'pol munosabatda bo'lmang, aks holda ular zarar yetkazishi mumkin.*

*O'ramlar juda tartibli ravishda kelgan, payti kelib ular buziladi.*



*Hozircha esa sizning uyingizdan Hobokengacha mohir usta yo‘q.*

*Javob: Tuxum.*

2) *I have eyes but I can't see.*

*I have skin but I can't feel anything.*

*I can be sweet but I'm not a piece of candy.*

*I can be baked but I'm not a cake.*

*I can be peeled but I'm not a carrot [3, 39]. Answer: A potato –*

*Mening ko‘zlarim bor, lekin ko‘rmayapman.*

*Mening terim bor, lekin men hech narsani his qilmayapman.*

*Men shirin bo‘lishim mumkin, lekin men shirinlik emasman.*

*Men pishirish mumkin, lekin men to‘rt emasman.*

*Meni archish mumkin, lekin men sabzi emasman. (Kartoshka)*

O‘zbek tilida misollar:

1) *Bir tol o‘sdi to ko‘kka qadar,*

*Bu tolning o‘n ikki shoxi bor.*

*Har shoxida to‘rttadan uya bor,*

*Har uyada yettitadan tuxum bor,*

*Har tuxumning yarmi qoradir ko‘rsang,*

*Yarmi oppoqdir, topgan bo‘lsang [10]. (Yil, o‘n ikki oy, hafta, kun, kecha-kunduz)*

2) *Gazlab olinmas, pudlab sotilmas,*

*Har kimda birdan ortiq bo‘lmas,*

*O‘zinikini birovga tortiq qilmas,*

*Ismi bo‘lsa ham, jismi bo‘lmas,*

*Ko‘zga ko‘rinmas, qo‘lga tutilmas,*

*Foydadan xoli emas, yo‘qdan topilmas,*

*Sholining poxoli emas,*

*Echkining soqoli emas [11]. (Aql)*

Tekstemali topishmoqlarlarning aksariyat qismi qadimdan ingliz va o‘zbek tillarida sheriyl shaklda bo‘lib kompozitsion va ritmik jihatdan ohangdor, o‘zida murakkab kommunikativ-sintaktik butunlikni qamrab oluvchi, biroq jumboqlanayotgan predmetni katta spektrdagi jihatlarini ochib beruvchi model hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ж. Систем тилшунослик асослари. Ўқув-услубий мажмуа. – Гулистон, 2012. – 184 б.
2. Путилина Е.А. Лингвистический статус тексты // Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 1 (22), 2016 | Филологические науки. – С.39 – 41.
3. Рыженкова А.А., Захаревич Е.Р. Лингвокультурологические особенности английской загадки// Филологический аспект: международный научно–

практический журнал. Нижний Новгород: Научно–издательский центр «Открытое знание», 2021. №10 (78). – С. 35–46.

4. Қиличев Э. Матнинг лингвистик таҳлили. – Бухоро: Бухоро университети, 2000. – 36 б.

5. Хасанова О. О. Текстема «машенька» как модальная доминанта в одноименном романе Владимира Набокова // Языкознания. Lingua mobilis №4 (23), 2010. – С.58–61.

6. Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарканд, 2010. – Б. 78–83.

7. Bridgman L.J. The guess book of riddles. Lothrop Lee & Shephard Co, 1929. – 116 p.

8. Ziyaev A. Turli Tizimli Tillarda “Deintensifikatsiya” Kontseptual Semantikasi Verbalizatorlarining Kognitiv Tipologiyasi // Samarqand ilmiy axborotnomasi. Filologiya 2018-yil, 4-son. – B. 94 – 97.

9. Yoʻldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi: oʻquv qoʻllanma // – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 188 b.

10. Tabiat hodisasi haqidagi topishmoqlar toʻplami. <https://ilmlar.uz/tabiat-hodisasi-haqida-topishmoqlar-toplami/>

11. Oʻzbek xalq topishmoqlari. <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/>

12. Matkarimova A.I. (2024). Nominative sentences in linguistics. *Scientific approach to the modern education system*, 2 (21), 39-41.